Social Science and Innovation
October, 2023
https://supportresult.uz/index.php/ssai
Volume: 1
Issue: 2
☐EDUCATION
✓HISTORY
☐PHILOSOPHY
☐PEDAGOGY
☐PHILOLOGY
☐PSYCHOLOGY
Research
SOCIAL SCIENCE AND INNOVATION
ISSN – 2992-9180
Volume 1, Issue 2, Pages:138-143
Jild I, Son 2, Sahifalar: 138-143
IJTIMOIY FAN VA INNOVATSIYA
СОЦИАЛЬНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИЯ

**Elmuratov Ortiq**
**Master student,**
**National university of Uzbekistan**

**Elmuratov Ortiq**
**Magistr ,**
**O'zbekiston Milliy Universiteti**

**Элмуратов Ортиқ**
**Мастер студент**
**Национальный университет Узбекистана**

# JANUBIY SUG'D HUDUDIDAGI YO'L BO'YI INSHOOTLAR. QARSHI – KERKI YO'NALISHIDAGI TALIMARJON SARDOBASI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

**ANNOTATSIYA:** **Ushbu maqolada Talimarjon etimologiyasi, Qarshi-Kerki yo'nalishida joylashgan yo'l bo'yi inshootlar – sardoba, karvonsaroy va rabotlar haqida, Talimarjon sardobasining yosh tadqiqotchilar tomonidan o'rganilishi haqida ma'lumot beriladi.**

**KALIT SO'ZLAR:** **sardoba, etimologiya, Amudaryo, Qarshi cho'li, Talimarjon, Nishon, Kelif, Kerki, Sangir Suvloq, sopol buyumlar, karvonsaroy.**

# ПРИДОРОЖНЫЕ СТРОИТЕЛЬСТВА В ЮЖНО-СОГДГСКОЙ ОБЛАСТИ. НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О ТАЛИМАРДЖОНСКОМ ВОДОХРАНИЛИЩЕ НА КАРШИ-КЕРКИНСКОМ НАПРАВЛЕНИИ

**АННОТАЦИЯ:** **В этой статье представлена информация об этимологии Талимарджана, придорожных сооружениях – сардоба, караван-сарае и рабате, расположенных в направлении Карши-Керки, об исследовании Талимарджанской цистерны молодыми исследователями.**

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** **сардоба, этимология, Амударья, пустыня Карши, Талимарджан, Нишан, Келиф, Керки, Сангир Сувлак, керамики, караван-сарай.**

# ROADSIDE CONSTRUCTIONS IN THE SOUTH SUGDH REGION. SOME CONSIDERATIONS ABOUT THE TALIMARJON RESERVOIR IN THE KARSHI-KERKI DIRECTION

**ABSTRACT: This article provides information about the etymology of Talimardzhan, the roadside structures located on the Karshi-Kerki route – sardoba, caravanserai and rabats, the study of Talimardzhan's sardoba by young researchers**
**KEY WORDS: sardoba, etimalogy, Amu Darya, Karshi desert, Talimardzhan, Nishan, Kelif, Kerki, Sangir Suvlaq, stonewares, caravanserai**

Asrlar osha insoniyat o'zi uchun suv inshootlarni qurib kelganligi tarixdan bizga malum. Bunga asosiy sabab ular doimo suvga bo'lgan ehtiyojdir. Jamiyki axeologik, arxetektura va boshqa madaniy meros obyektlarining suv yaqinlarida joylashganligi ham buni tasdiqlaydi. Bulardan tashqari shunday obyektlar borki, ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish uchun maxsus yaratilgan. Bu obidalarga sardobalar kiradi. Ular keng sahrolardan o'tgan yo'l yoqalarida va uzoq masofalar oralig'ida bunyod etilgan.

Sardoba so'zi tarixiy hujjatlar va adabiyotlarda "yer osti salqinlik qozoni" ma'nosida keltirilgan bo'lib, ko'pincha "grotto", "muz uyi", "yerto'la", "quduqxona" ma'nosini ham anglatadi. Boshqa bir manbada sardoba so'zi "suv ustidagi tom" tushunchasini beradi. Odatda sardobalar karvonsaroylar va rabotlarga olib boradigan yo'l bo'ylarida qurilgan. Bir-biridan bir kunlik masofada (25-30 km) joylashgan bu sardobalar XX asrning 30-yillarida M.Ye. Masson, tomonidan tadqiq etilgan. Karvon savdosi rivojlanishi natijasida yarim yerosti suv havzalari-sardobalarga ehtiyoj ortib borgan.

Talimarjon Qarshi vohasining Amudaryodan Kerki kechuvida, Turkmaniston bilan chegara hududida joylashgan. Geografik jihatdan Talimarjon pasttekisligi – Sandiqli qum tepaliklari deganda, Nishon yo'l patrul xizmati postidan boshlanib, qo'shni Turkmanistonning Tallimarjon xo'jaligigacha bo'lgan hududlarni qamrab olgan bepoyon (katta) sahro tushunilgan. Shu o'rinda Talimarjon etimologiyasiga ham to'xtalsak. Talimarjon – tal (arabcha) – tepalik, do'nglik, pastlik tog', tuproq va qum uyumi kabi ma'nolarni anglatadi. Turonda, shu jumladan, ***tall*** atamasi bilan *tol* daraxti nomi chalkashib ketgan. Talimarjon so'zining o'zagidagi tal – tepalik, marjon – munchoqlar shodasi. Bunday kelib chiqib, Talimarjon "marjon tepalik", "tepaliklar shodasi" degan xulosaga kelish mumkin. Shu bilan birga Talimarjon so'zining kelib chiqishi haqida bir qancha rivoyatlar ham mavjud.

Bir rivoyatga ko'ra, "Talimarjon" so'zi, "toli marjon", ya'ni majnuntollar shodasi deyiladi. Tarixda bu yerlarda suv bo'lmagan. Bir paytlar Buxorodan Eron, Turkiyaga boradigan karvon yo'li shu yerdan o'tgan. Talimarjon yerdan Qarshigacha shu sahro ichida ot, tuya bilan 2 kunlik yo'l, Amudaryogacha ham shuncha masofa. Shuning uchun Talimarjon quyiroqda, ya'ni Amudaryo tomonda qor-yomg'ir, do'l-jala suvlarini bir joyga to'plab sardoba qurganlar.

Sardoba atrofiga kimdir qator qilib majnuntol qalamchalarini ekkan boʻlib, u uzoqdan yam-yashil marjon shodasiga oʻxshab koʻringan. Shuning uchun karvon qatnashchilari orasida bu yer: - "majnuntollar shodasi" yoki "tolli marjon"- deb atalib ketgan deyishadi.

Qadimiy sardobalarni qurilish tarixi IX-X asrlarga borib taqaladi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Movarounnahrda 44 ta sardoba mavjud boʻlib, ulardan 29 ta Qarshi choʻlida, 3 ta Mirzachoʻlda, 1 ta Karmana yaqinidagi Choʻli Malikda tashkil qilingan. M.Ye. Masson ham 7 ta sardoba haqida muhim ma'lumotlarni keltirib oʻtgan.

Samarqanddan boshlanib to Amudaryo kechuvlariga qarab boruvchi yoʻllar tizimida Janubiy Sugʻd, (Qashqadaryo viloyati) hududi orqali oʻtgan. Janubiy Sugʻd asosiy suv manbai Qashqadaryo havzasidagi Kesh, Nakshipa (Yerqoʻrgʻon), Naxshab kabi yirik shaharlar vohaning ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarida muhim oʻrin tutgan.

Samarqanddan quyi Qashqadaryo vohasi orqali Amudaryoning oʻrta oqimidagi kechuvlarga olib chiquvchi yoʻllar Sugʻdning mintaqaviy ahamiyatga ega karvon yoʻllaridan biri boʻlgan.

Soʻngi oʻrta asrlarda Qarshidan Amudaryo kechuvlari – Kerki va Kelifga ketuvchi yoʻllardan samarali foydalanilganligi bois, bu yoʻllarning iqtisodiy va harbiy-strategik ahamiyatini yaxshi anglagan Abdullaxon II (1583-1598) Qarshi va Amudaryo oralig'idagi choʻlda koʻplab sardobalar qurdirgan. Ular Qarshi – Kerki va Qarshi – Kelif savdo yoʻlining yoʻnalishini aniqlashtirishda katta oʻrin tutgan.

Qarshi-Kerki yoʻnalishidagi dastlabki sardoba Qarshi shahrining Registon maydonida joylashgan. Sardoba gumbazining tashqi diametri 14 m, balandligi esa 7 m.ni tashkil etadi. Qarshi sardobasi shahar aholisini toza ichimlik suvi bilan yil boʻyi ta'minlagan. Bu sardobaning yana bir xususiyati shundaki, u yomgʻir va qor suvlaridan emas, Fayzaobod arigʻining suvidan toʻldirilgan.

Qarshi – Kerki yoʻnalishdagi yirik bekat Eski Nishon hududidagi rabot va sardobadan iborat boʻlgan. Eski Nishonda Abdullaxon II tomonidan sardoba va rabot qurilgan boʻlib, vengeriyalik sayyoh A.Vamberi XIX asrning 60-yillarida bu yerdan oʻtganda, tunning yarimini sardoba xarobalarida orasida oʻtkazganini va ular Abdullaxon davridan bera mavjudligini ta'kidlab oʻtgan. Professor Oʻ. Mavlonovning ma'lumotlariga koʻra, XX asrning 60-yillarida sardoba butunlay buzib tashlangan, uning xarobalari Eski Nishon qishlogʻidan 3-4 km janubi-sharqda joylashgan.

Bu yoʻnalishdagi keyingi manzil, Talimarjon sardobasidir. Biz bu haqda keyinroq toʻxtalib oʻtamiz. Qarshi – Kerki yoʻnalishidagi eng yirik inshoot boʻlgan Sangir Suvloq sardobasi boʻlib, Turkmanistoning Lebap viloyati Tallimarjon xoʻjaligida, Talimarjon sardobasidan taxminan 25-26 km janubi-gʻarbda, joylashgan. Bu sardobani oʻz koʻzi bilan koʻrgan A.Vamberi quyidagilarni aytib oʻtadi: "Tushdan ancha oldin Sangir Suvloq sardobasiga yetib keldik". Shuningdek, suvni topishga shubha qilgani

va keyin suvni topib, eshaklarga zaxira suv yuklaganlarini aytib o‘tadi. “Sardobaning gumbazi baland, yoshi ikki yuz yildan ortiq bo‘lishiga qaramay mutlaqo buzilmagan holda saqlanib qolgan sardoba bahor oyida tepasiga qadar to‘ldiriladi. Hozirda uning chuqurligi bor-yo‘g‘I 3 futni tashkil qiladi. Uning atrofida o‘zbeklarning qo‘ng‘irot va nayman urug‘lariga tegishli 200 ga yaqin o‘tovlari joy olgan. Sardobaning eni 12 m, chuqurligi esa 5,5 m tashkil qilgan. Sangir Suvloq sardobasida Qarshidan keluvchi yo‘l ikkiga ajraladi va biri Kerkiga, ikkinchisi Kelif kechuviga olib borgan.

Talimarjon suv omborining shimoli-sharqiy qismida joylashgan Talimarjon sardobasi, suv omborning suv sathi pasayganda kuzatish mumkin. Boshqa paytlarda esa suv ostiga ko‘milib qoladi. Sardoba ayrim sabablarga ko‘ra haligachacha to‘liq o‘rganilmagan. Ammo arxeolog M.Ye.Masson Talimarjon sardobasiga oid ma’lumotlar adabiyotlarda uchramasligi shuningdek, sardoba suvi tez-tez qurib qolishi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tgan.

Hozirgi Talimarjon shaharchasidan taxminan 10-12 km shimoli-sharqda, Talimarjon suv omborning havzasida o‘rta asrlar davri sardobasining gumbazi vayron qilingan, poydevori saqlangan yodgorlik mavjud ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu sardoba yarim vayrona holda atrofida o‘rta asrlarga doir pishiq g‘isht bo‘laklari, aniq yer yuzasida ko‘rinib turibdi. Bu esa aniqlangan sardoba atrofida o‘ziga xos relef ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Har bir sochilib yotgan g‘ishtlar alohida kichik do‘ngliklarni hosil qilgan. Bularning hammasi yarim xaroba holatida saqlanib qolgan. Sardoba esa bu qoldiqlardan nisbatan pastlikda, chuqur nuqtada joylashgan. Sardoba va uning atrofida saqlangan arxeologik qoldiqlar (g‘ishtlar) orasida o‘rta asrlarga oid sopollar ham uchraydi.

Sardoba gumbazining hovuzga tutashgan qismi bir tekisda bo‘lib, Sardobaning hovuz qismi yaxshi saqlangan, ichida loyqa suv hosil qilgan qurigan loyqa saqlangan. Hovuzning ichki diametri 12 m, tashqi diametri 15 m, devorning qalinligi diametr bo‘ylab 1,1 m dan 1,4 metrgacha tashkil etadi. Hovuzning saqlangan chuqurligi 2,35-2,55 metrni tashkil etadi. Sardoba 24x24x5-6 sm, 25x25x5-6 sm o‘lchamdagi pishiq g‘ishtdan qurilgan.

Sardoba atrofida saqlangan boshqa arxeologik qoldiqlar ham ko‘zga tashlanadi. Bular yuqorida ta’kidlaganimizdek bir-biriga yaqin o‘rta asrlar davri pishiq g‘ishtlarining sochilib yotgan kichik do‘ngliklaridan iborat qoldiqlar. Bu kichik do‘ngliklar sardoba atrofida joylashgan. Topilmalar asosiy qismini suv idishlarining tutqichlari, tag va bo‘g‘iz qismlari yoki uning qorin qismi bo‘laklari, bundan tashqari sirlangan, sirlanmagan sopol bo‘laklari va gulxanda kuygan sopol buyumlarning siniqlari ham uchraydi. Kuygan sopollarni qozon parchalari deb taxmin qilish mumkin. Shuningdek, o‘rta asrlarga oid shisha idishlarining bo‘laklari ham topildi. Suv idishlarining tutqichlari turli xil o‘lchamda, loyi pishirilgan qizg‘ish pishiq loydan tayyorlangan. Ko‘rinishidan xumdonda pishirilgan. Suv idishlarining qorin qismi bo‘laklari ham turli xil qalinliklardan

iborat. Keyingi topilmalar sirasiga xo'jalik va oshxona buyumlari kiradi. Bular turli xil oshxona idishlarining qoldiqlari bo'lib, ularning sirtiga taroqsimon naqshlar bilan birga bosma uslub bilan o'simliksimon naqsh tushirilgan. Ularning sirtiga och sariq angob berilgan. Ularning ichida ko'proq bosma uslubda naqsh berilgan nozik sopol bo'laklari ko'p uchraydi. Bir holatda kichkina idishning lab qismiga to'lqinsimon shaklda naqsh berilgan.

Shuningdek topilmalar ichida sirlangan sopollar bo'laklari ham o'rganildi. Bular asosan sopol idishlarining devor bo'laklari bo'lib, dag'al sirlangan bo'lib, to'q yashil, to'q ko'k va ko'k ranglardan tashkil topgan. Bir holatda sopol bo'lagining ikki tomoni ham yorqin oq sir berilgan sopol bo'lagini ham uchratdik. Yana bir sopol bo'lagining tashqi tomoni yashil rangda sirlangan, ichkari qismida esa to'q sariq rang berilgan. Qoramtir rangli toshdan yasalgan idishning lab qismi ham uchraydi. Uning lab va qorin qismi tutashgan qismida maxsus qilingan tishik chiqarilgan. Boshqa topilmalar ichida chaqmoqtoshning bo'lagi ham uchraydi. Chaqmoqtosh ikki tomoni maxsus ishlov berilgan.

Topilmalarning tasnifi XII va XIV-XV asrlarga oid. Topilmalar sardoba joylashgan hudud atrofidan ko'tarma material sifatida olindi. Bosma naqshlar tushirilgan sopollar XII asrga oid, bu esa Talimarjon sardobasining shu davrga oidligini dalili sifatida keltirishimiz mumkin. "Google map" dan olingan kosmik suratlar tahlil qilinganda qadimda sardobani suv bilan taminlab turgan kanal yoki ariqning uzanini ham ko'rish mumkin. Talimarjon sardobasining qurilish tarhiga to'xtalsak, sardobaga kirish qismi Raboti Malik sardobasiga o'xshash.

Sardobaning atrofida uchraydigan alohida turgan kichkina do'ngliklar, ustida turgan sochilib yotgan g'isht bo'laklari karvonsaroy va boshqa xizmat ko'rsatuvchi inshootlarning qoldiqlari deb taxmin qilish mumkin. Karvonsaroy 36x17x6-7 sm o'lchamdagi pishiq g'ishtlardan qurilgan. Odatda sardobalar qurilgan joylarda karvonsaroylar ham qurilgan. O'zbekiston hududining tarixiy shaharlari va xususan bu o'lka orqali o'tgan Buyuk ipak yo'lini karvonsaroylarsiz tasavvur qilish qiyin. "Karvonsaroy" atamasi forscha bo'lib, uning so'zma-so'z ma'nosi "karvon uyi", ya'ni karvon yo'llari va shaharlarda karvonchilar va savdogarlarning tunash va savdo qilish uyi tushunchalarini anglatgan. Karvon yo'llari va umuman savdo-sotiqning eng muhim elementlaridan bo'lgan karvonsaroylar tizimi tuzilishini o'rganish, xalqimizning boy me'morchilik tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. Karvonsaroylar odatda savdo markazlari bo'lgan shaharlarda, muhim karvon yo'llari bo'yida barpo etilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki bizga ma'lum bo'lgan Talimarjon suv ombori havzasidagi arxeologik qoldiqlar muqaddam tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmagan. Bu yodgorlik o'zining tadqiqotchisini kutib turibdi albatta. Sardoba Qarshi-Kerki savdo yo'lidagi muhim ahamiyatga ega yodgorliklari sirasiga kiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Духовный В. А., Юп Л. Г. де Шуттер. Вода в Центральной Азии. Прошлое, настоящее и будущее. Алматы. Қазақ университеті, 2018. 468 с.
2. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. - СПб., 1865. с. 107.
3. М.Е. Массон Проблема изучения цистерн-сардоба Ташкент. 1935. С 31-34.
4. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб Проблемқ цивилизации узбекистана VII в. До н.э. – VII в. н. э. Самарканд – Ташкент 2000. С 74-75.
5. Уралов А. С. К вопросу о типологии сардобы // Общественные науки в Узбекистане. № 11-12. 1996. С. 82 110 с.
6. Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг кадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. Монография. -Т.: Akademiya, 2008. 193-бет.
7. Равшанов П. Қарши тарихи-Т., 2006. 508 б.
8. Hasanov A.O. Karvonsaroylar me'morchiligini rivojlantirish masalalari // Memorchilik va qurilish muammolari. 2019, № 2. 18-21-betlar.
9. Fayzullayev M., Primov U. Talimarjon afsonasi. Qarshi. 2019. 180 b.
10. Qorayev S. Toponimika Toshkent. 2006. 218 b.
11. Türkmenistanyň Medeniýet ministrligi https://medeniyet.gov.tm/tk/sigle-news/931